

## ENDOKRIN SESTEWA

***Abdiyeva Sevinch Toshquvvat qizi***  
***Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti 2-kurs talabasi***

**Annotatsiya:** Endokrin sistema gistologik tuzilishi ,uning hujara darajasidagi xususiyatlari va funksional ahamiyati yoritilgan .Endokrin bezlarning asosiy xususiyatlari va ularning organizimda gomeostazni taminlashdagi o'rni tahlil qilinadi .

**Kalit so'zlari:** Endokrin sistema , gormonlar,bez hujayralari,gomeostaz,ichki sekritsiya.

### **KIRISH**

Endokrin sistema organizim faoliyatini gumoral yul bilan boshqaruvchi murakkab tizimdir. U turli bezlardan iborat bolib,ular ichki sekretiya orqali gormonlar ishlab chiqaradi .Gistalogiyada endokrin bezlarning hujayraviy va to'qima tuzilishini o'rganish muhimdir,chunki bu ularning fiziologik funksiyalarini tushunishga imkon beradi.

Ilmiy manbalar endokrin sistema hujayralari morfologik va funksional jihatdan turlicha ixtisoslashganligini ko'rsatadi. Masalan, gipofiz, qalqonsimon, buyrak usti bezlari va oshqozon osti bezining hujayra tuzilishi hamda ularning gormon ishlab chiqarish mexanizmi bat afsil o'rganilgan. Zamonaviy gistokimyoviy va immunogistokimyoviy tadqiqotlar yordamida endokrin hujayralarning ichki tuzilishidagi maxsus granula va organellalar aniqlandi.

#### 1. Gipofiz bezi gistologiyasi.

Gipofiz old qismi adenogipofiz deb ataladi va unda turli hujayra tiplari mavjud: asidofil, bazofil va xromofob hujayralar. Ular o'sish gormoni, tireotrop, adrenokortikotrop va gonadotrop gormonlar ishlab chiqaradi. Gipofiz orqa qismi asosan neyrosekretsion tolalardan iborat bo'lib, vazopressin va oksitotsin saqlaydi.

#### 2. Qalqonsimon bez.

Qalqonsimon bez follikulalardan tashkil topgan. Follikulalarning devori bir qatlamlili kubsimon epiteliyning follikul hujayralaridan iborat. Ular tiroksin va triyodtironin gormonlarini ishlab chiqaradi. Follikula ichida kolloid moddasi joylashgan.

#### 3. Buyrak usti bezlari.

Bu bezlar po'stloq va mag'iz qismlaridan tashkil topgan. Po'stloqda zona glomeruloza, zona fasikulata va zona retikularis farqlanadi. Har bir zona turli steroid gormonlar ishlab chiqaradi. Mag'iz qismida xromaffin hujayralar bo'lib, ular adrenalin va noradrenalin sekretsiya qiladi.

#### 4. Oshqozon osti bezining Langerhans orolchalaridagi histologiya.

Alfa hujayralar (glyukagon), beta hujayralar (insulin), delta hujayralar (somatostatin) va PP-hujayralar aniqlangan. Ularning birgalikdagi faoliyati glyukoza almashinuvini boshqaradi.

### **TADQIQOT NATIJASI**

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, endokrin bezlarning histologik tuzilishi ularning maxsus funksiyalarini belgilaydi. Har bir bez o'ziga xos hujayra tiplari va sekretsiya mexanizmiga ega. Bu jihatlar organizmda gormonlar muvozanatini saqlash va fiziologik jarayonlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

### **XULOSA**

Endokrin sistema histologiyasi ichki sekretsiya bezlarining hujayraviy va to'qima darajasidagi murakkab tuzilishini ochib beradi. Histologik tadqiqotlar endokrin tizim kasalliklarini tushunish, tashxislash va davolashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Junqueira L.C., Carneiro J. Basic Histology. McGraw-Hill, 2015.
2. Ross M.H., Pawlina W. Histology: A Text and Atlas. Wolters Kluwer, 2019.
3. Sherwood L. Human Physiology: From Cells to Systems. Cengage Learning, 2016.
4. Абдурахмонов А., Юсупова Х. Гистология. Toshkent: O'zbekiston, 2010.